



2021- yil yanvar-avgust oylarida Andijon viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Andijon viloyatida jami **3450** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **108,2 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **171,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan o'sish surati **84,1 %** ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,97 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Andijon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **36,1 %** i yoki 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **111,0 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2020- yil yanvar-avgust
- 2021- yil yanvar-avgust


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **69,45 %** i to'g'ri kelib, 2020- yil yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,09 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil mos davriga nisbatan **108,7 %** ni tashkil etgan holda **2396,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **25,6 %** ni tashkil etdi yoki **882,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan **113,0 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **106,2** mlrd. so'm yoki 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **108,8 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3343,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **4,6** martani tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da





Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2021- yil yanvar-avgust oylarida

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Viloyat bo'yicha:	3450,0	106,2	3,1	3343,8	96,9
Andijon sh.	1246,5	3,8	0,3	1242,7	99,7
Xonobod sh.	96,2	-		96,2	100,0
tumanlar :					
Oltinko'l	167,6	5,9	3,5	161,7	96,5
Andijon	329,3	17,1	5,2	312,2	94,8
Baliqchi	97,3	3,8	3,9	93,5	96,1
Bo'ston	153,0	5,6	3,7	147,4	96,3
Buloqboboshi	52,9	4,0	7,6	48,9	92,4
Jalaquduq	152,1	18,1	11,9	134,0	88,1
Izboskan	136,8	4,5	3,3	132,3	96,7
Ulug'nor	70,6	3,9	5,6	66,7	94,4
Qo'rg'ontepa	105,0	5,3	5,0	99,7	95,0
Asaka	151,2	7,3	4,8	143,9	95,2
Marxamat	141,2	5,4	3,9	135,8	96,1
Shaxrixon	246,7	9,1	3,7	237,6	96,3
Paxtaobod	191,7	2,4	1,3	189,3	98,7
Xo'jaobod	111,9	10,0	8,9	101,9	91,1

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,% da

2020- yil yanvar-avgust

9,1



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

15,6



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

75,3



Bino va inshootlarni qurilishi

2021- yil yanvar-avgust

12,3



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

12,5



Fuqarolik obyektlarini qurilishi

75,2



Bino va inshootlarni qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,9 %** ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,8 %** punktga ka'maydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,6 %** punktga ko'payib, **63,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yil yanvar - avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,8 %** punktga ka'mayib, **33,9 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **14,0 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **1,0 %** punktga ka'maydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **85,9 %** (**0,9 %** punktga ko'paydi).

Norasmiy sektorning ulushi esa **0,1 %** ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **2,6 %** punktga ka'maydi va **6,8 %** ni tashkil etdi.

Qolgan **93,2 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **2,6 %** punktga ko'paydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-avgust oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Andijon sh.
1246,5

2

Shahrihon
246,7

1

Andijon
329,3

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Baliqchi
97,3

2

Ulug'nor
70,6

1

Buloqbohi
52,9

3





Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: X.Xoldarov

Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37